



**NAVOIY VILOYATI
STATISTIKA BOSHQARMASI**



**NAVOIY
VILOYATINING SANOAT
ISHLAB CHIQRISHI**

*2022- YIL YANVAR-FEVRAL
(DASTLABKI MA'LUMOT)*




Navoiy viloyatining sanoat ishlab chiqarishi

(2022- yil yanvar-fevral oyida)


Dastlabki ma'lumotlar bo'yicha 2022- yilning yanvar-fevral oylarida viloyatimiz korxonalaridan 12 531,5 mlrd. so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan bo'lib, 2021- yilning yanvar-fevral oylariga nisbatan sanoat ishlab chiqarishining fizik hajm indeksi* 104,8 % ni tashkil etdi.

Sanoat ishlab chiqarishi tarkibida eng katta ulush ishlab chiqaradigan sanoat hissasiga to'g'ri kelib, uning jami sanoat ishlab chiqarishidagi ulushi 79,2 % ni tashkil etdi.




B

Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash




C

Ishlab chiqaradigan sanoat



D



Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash



E

Suv bilan ta'minlash; kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilitatsiya qilish

Asosiy iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha sanoat ishlab chiqarishi, FHI* % da




*Sanoat ishlab chiqarishining fizik hajmi indeksi ishlab chiqarilgan mahsulotlar (ishlar, xizmatlar) hajmining taqqoslanadigan davrlardagi o'zgarishini tavsiflovchi nisbiy ko'rsatkichdir.

Jami sanoat ishlab chiqarish fizik hajmi o'sishining asosiy omili bo'lib, tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash sanoatida - 33,0 % ga va ishlab chiqaradigan (qayta ishlash) sanoatning - 0,2 % ga hamda elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalashning - 32,0 % ga o'sishiga xizmat qildi.


Shuningdek, suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni utilizatsiya qilishda - 4,1 % ga pasayish kuzatildi.

Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash sanoati



Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash korxonalari tomonidan 2022- yilning yanvar-fevral oylarida ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 1 714,7 mlrd. so'mni yoki jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 13,7 % ini tashkil etdi.

Jami sanoat ishlab chiqarishi hajmidagi ulushi, foizda




Ishlab chiqaradigan sanoat

mlrd. so‘m

Yanvar-fevral

FHI,% da



2022- yilning yanvar-fevral oylarida ishlab chiqaradigan sanoat korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 9 932,9 mlrd. so‘mni yoki jami sanoat mahsulotlarining 79,2 % ini tashkil etdi.

2021- yil yanvar-fevral


84,2 %

2022- yil yanvar-fevral

79,2 %

O‘tgan yilning mos davri bilan solishtirganda ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida yuqori texnologiyali tarmoqning ulushi 0,2 % ni (2021- yilning yanvar-fevral oylarida – 0,1 %), o‘rta-yuqori texnologiyali – 10,1 % (6,0 %), o‘rta-quyi texnologiyali – 83,3 % (87,9 %) va quyi texnologiyalisi – 6,4 % (6,0 %)ni tashkil etdi.

■ 2022- yil ■ 2021- yil



Jami ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarishning ulushi - 1,8 % (2021- yil yanvar-fevral oylariga nisbatan fizik hajm indeksi - 58,3 %), metallurgiya sanoatining ulushi - 76,9 % (2021- yil yanvar-fevral oylariga nisbatan fizik hajm indeksi - 100,3 %), to'qimachilik, kiyim, teri mahsulotlarini ishlab chiqarishning ulushi - 3,7 % (2021- yil yanvar-fevral oylariga nisbatan fizik hajm indeksi - 102,4 %), oziq-ovqat, ichimliklar va tamaki mahsulotlarini ishlab chiqarishning ulushi - 2,6 % (2021- yil yanvar-fevral oylariga nisbatan fizik hajm indeksi - 113,3 %), kimyo mahsulotlari, rezina va plastmassa buyumlarini ishlab chiqarishning ulushi - 8,6 % (2021- yil yanvar-fevral oylariga nisbatan fizik hajm indeksi - 90,2 %) ni tashkil etdi.

Ishlab chiqaradigan sanoatda ayrim turdagi mahsulotlarning o'sish sur'ati

O'tgan yilning mos davriga nisbatan, % da

Natriy gidroksidi (kaustik soda)




Suvsiz ammiak




Sement



Azot



Tvorog va tvorogdan mahsulotlar



Yumshoq bug'doy va spelta uni




2022- yilning yanvar-fevral oylari davomida ishlab chiqaradigan sanoatda 123,6 ming tonna suvsiz ammiak (2021- yilning yanvar-fevral oylariga nisbatan 176,0 % ga o'sgan), 38,7 ming tonna azot mochevina (karbamid) (279,6 %), 1,8 ming tonna kalsiy xlorid (507,2 %) ishlab chiqarilib, yuqori o'sish sur'atlari kuzatildi.

Ishlab chiqaradigan sanoatda yirik sanoat korxonolari tomonidan ayrim turdagi mahsulotlarni ishlab chiqarish

Sanoat mahsulotlari	2021- yil yanvar-fevral	2022- yil yanvar-fevral	2021- yil yanvar-fevral oylariga nisbatan o'sish, % da
Portlandsement, ming tonna.	603,0	282,6	46,9
Mochevina (karbamid), ming tonna azot.	13,8	38,7	279,6
Yumshoq bug'doy va spelta uni, tonna	10 770,0	9 988,1	92,7
Sirka kislotasi, tonna	852,0	1 383,0	162,3
Kislorod, ming m ³ .	22,6	25,7	113,8
Suvsiz ammiak, ming tonna,	70,2	123,6	176,0
Kalsiy xlorid, ming tonna.	0,4	1,8	507,2
Plastmassadan qattiq quvurlar, trubkalar va shlanglar, tonna	853,7	956,5	122,0

Metallurgiya sanoati

Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida 2021- yilning yanvar-fevral oylarida metallurgiya sanoati ulushi 78,9 % ni tashkil etib, uning fizik hajm indeksi 7,0 % ga oshgan bo'lsa, 2022- yilning yanvar-fevral oylari yakunlariga ko'ra, metallurgiya sanoatining ulushi 76,9 % ni tashkil etdi, fizik hajm indeksi esa, 100,3 % ni tashkil etdi va ishlab chiqarish hajmi 7 640,1 mlrd. so'mni tashkil etdi.




Avtotransport vositalari, treylerlar va yarim pritseplar ishlab chiqarish



Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida 2021- yilning yanvar-fevral oylarida avtotransport vositalari, treylerlar va yarim pritseplar ishlab chiqarishning ulushi 0,4 % ni, uning fizik hajm indeksi esa 56,3 % ni tashkil etgan bo'lsa, 2022- yilning yanvar-fevral oylari yakunlariga ko'ra, avtotransport vositalari, treylerlar va yarim pritseplar ishlab chiqarishning ishlab chiqaradigan sanoat tarkibidagi ulushi 0,9 % ni tashkil etdi, o'tgan yilning mos davriga nisbatan fizik hajm indeksi esa 2,4 (m) ga oshdi va ishlab chiqarish hajmi 87,1 mlrd. so'mni tashkil etdi.

Oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish sanoati


Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida 2021- yilning yanvar-fevral oylarida oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 2,3 % ni, uning fizik hajm indeksi esa 104,8 % ni tashkil etgan bo'lsa, 2022- yilning yanvar-fevral oylari yakunlariga ko'ra, oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 2,6 % ni tashkil etdi, o'tgan yilning mos davriga nisbatan fizik hajm indeksi esa 13,4 % ga oshdi va ishlab chiqarish hajmi 254,6 mlrd. so'mni tashkil etdi.



To'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarish sanoati

Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida 2021- yilning yanvar-fevral oylarida to'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 2,5 % ni tashkil etgan bo'lsa, uning fizik hajm indeksi 127,7 % ni tashkil etgan.

Shuningdek, 2022- yilning yanvar-fevral oylarida to'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 2,5 % ni tashkil etgan, fizik hajm indeksi 0,5 % ga o'sgan bo'lsa, ishlab chiqarish hajmi 247,2 mlrd. so'mni tashkil etdi.



Kiyim ishlab chiqarish sanoati



2021- yilning yanvar-fevral oylari yakunlariga ko'ra, kiyim ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoat tarkibidagi ulushi 1,0 % ni, fizik hajm indeksi esa 99,8 % ni tashkil etgan. Shuningdek, 2022- yilning yanvar-fevral oylarida ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 1,1 %, fizik hajm indeksi 104,6 % ni, ishlab chiqarish hajmi esa 105,9 mlrd. so'mni tashkil etdi.

Kimyo mahsulotlari ishlab chiqarish

2021- yilning yanvar-fevral oylari yakunlariga ko'ra kimyo mahsulotlari ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 5,4 % ni tashkil etgan, fizik hajm indeksi esa 144,9 % ni tashkil etgan.


Shuningdek, 2022- yilning yanvar-fevral oylarida ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 8,6 % ni, fizik hajm indeksi 124,8 % ni hamda ishlab chiqarish hajmi 853,9 mlrd. so'mni tashkil etdi.



Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash

Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 876,6 mlrd. so'mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 7,0 % ni) tashkil etdi.

2022- yilning yanvar-fevral oylarida, sanoatning mazkur tarmog'ida elektr energiyani ishlab chiqarish, uzatish va taqsimlash, bug' bilan ta'minlash tizimlari va havoni konditsiyalashning o'tgan yilning mos davriga nisbatan fizik hajm indeksi 132,0 % ni tashkil etdi.




Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash sohasida yirik sanoat korxonalari tomonidan sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish

Sanoat mahsulotlari	2021- yil yanvar-fevral	2022- yil yanvar-fevral	Farqi +/-
Elektroenergiya, mln.kVt.s	1 863,1	2 138,6	275,5
Issiqlik energiyasi, ming gkal	1 089,2	1 070,8	-18,4

Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish

Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 7,3 mlrd. so'mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 0,1 % ini) tashkil etdi.



Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash sohasida yirik sanoat korxonalari tomonidan sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish

Sanoat mahsulotlari	2021- yil yanvar-fevral	2022- yil yanvar-fevral	Farqi +/-
Oqova suvlarni yo'qotish, transportirovka qilish va ishlov berish bo'yicha xizmatlar, mln.so'm	10 996,8	9 809,8	-1 187,0
Boshqa guruhlariga kiritilmagan, qayta foydalanishga yaroqli yig'ilgan boshqa xavfsiz chiqindilar, tonna	4 318,8	11 430,0	7 111,2

O'tgan yilning mos davriga nisbatan boshqa guruhlariga kiritilmagan, qayta foydalanishga yaroqli yig'ilgan boshqa xavfsiz chiqindilar 264,7 % ni va oqova suvlarni yo'qotish, transportirovka qilish va ishlov berish bo'yicha xizmatlar - 89,2 % ni tashkil etdi.

Iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish

Tayyor mahsulot turlarini kengaytirish va ishlab chiqarilishini qo'llab-quvvatlash bo'yicha amalga oshirib kelinayotgan chora-tadbirlar natijasida, iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi 552,3 mlrd. so'mni tashkil etdi va 2021- yilning mos davriga nisbatan 110,4 % ni, uning jami sanoatdagi ulushi 4,4 % ni tashkil etdi.

Oziq-ovqat mahsulotlari

2021- yil
yanvar-fevral

42,7%

2022- yil
yanvar-fevral

43,5%

Nooziq-ovqat mahsulotlar

2021- yil
yanvar-fevral

57,3%

2022- yil
yanvar-fevral

56,5%


Oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish tarkibida vino va aroq mahsulotlari va pivo 0,01 % (2021- yil yanvar-fevral oylarida 0,01 %)ni tashkil etdi.

Hududlar kesimida iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarilishining viloyat jami hajmidagi eng yuqori ulushi Karmana tumaniga to'g'ri kelib 25,6 % ni, Navoiy shahri 21,9 % ni, Xatirchi tumani 12,6 % ni, Qiziltepa tumani 12,3 % ni hamda Navbahor tumani 8,5 % ni tashkil etdi.

Shuningdek, iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarilishining o'sish sur'atida viloyat o'sish sur'ati (110,4 %) darajasidan yuqori ko'rsatkich Karmana tumanida (158,9 %) hamda Navbahor tumanida (114,9 %) qayd etildi.

Shahar va tumanlar bo'yicha iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi, tarkibi va o'sish sur'ati

Shahar va tumanlar kesimida iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarilishining viloyatda jami hajmidagi eng yuqori ulushi to'g'ri kelib Karmana tumanida 25,6 % shuningdek, Navoiy shahriga 21,9 %, Xatirchi tumanida 12,6 % ni, Qiziltepa tumanida 12,3 % ni tashkil etdi.




o'sish sur'ati
mlrd. so'm

468,9 mlrd. so'm
2020- yil yanvar-fevral

504,5 mlrd. so'm
2021- yil yanvar-fevral

552,3 mlrd. so'm
2022- yil yanvar-fevral



Jami sanoat ishlab chiqarish hajmida iste'mol mahsulotlarining ulushi



Shahar va tumanlar bo'yicha nooziq-ovqat mahsulotlar ishlab chiqarish hajmi, tarkibi va o'sish sur'ati

Shahar va tumanlar kesimida nooziq-ovqat mahsulotlar ishlab chiqarilishining viloyatda jami hajmidagi eng yuqori ulushi Karmana tumanida to'g'ri kelib, 29,8 % shuningdek, Navoiy shahrida 22,8 %, Xatirchi tumanida 9,8 % ni, Navbahor tumanida 8,8 % ni tashkil etdi.

286,9 mlrd. so'm


2020- yil yanvar-fevral

301,8 mlrd. so'm



2021- yil yanvar-fevral

312,1 mlrd. so'm

2022- yil yanvar-fevral





Jami iste'mol mollari ishlab chiqarish hajmida nooziq-ovqat mahsulotlarining ulushi




o'sish sur'ati
mlrd. so'm

Shahar va tumanlar bo'yicha oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi, tarkibi va o'sish sur'ati

Shahar va tumanlar kesimida oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarilishining viloyatda jami hajmidagi eng yuqori ulushi Navoiy shahriga to'g'ri kelib, 20,8 % ni shuningdek, Karmana tumani 20,2 % ni, Qiziltepa tumani esa 17,0 % ni tashkil etdi.



Jami iste'mol mollari ishlab chiqarish hajmida oziq-ovqat mahsulotlarining ulushi



Navoiy viloyati shahar va tumanlar kesimida sanoat ishlab chiqarishi hajmlari

Shahar va tumanlar kesimida sanoat ishlab chiqarilishining viloyatda jami hajmidagi eng yuqori ulushi Navoiy shahriga to'g'ri kelib 84,8 % ni, shuningdek, Karmana tumani 11,2 % ni, Qiziltepa tumani esa 1,6 % ni tashkil etdi.

Navoiy viloyati

2020- yil

8 320,8 mlrd. so'm

2021- yil

11 062,2 mlrd. so'm

2022- yil

12 531,5 mlrd. so'm



2020- yil


103,4 %

2021- yil

108,1 %

2022- yil

104,8 %



FHI, % da

mlrd. so'm

Sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishda kichik biznesning ulushi

Hisobot davrida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan 683,4 mlrd. soʻmlik sanoat mahsuloti ishlab chiqarilib, uning umumiy ishlab chiqarish hajmidagi ulushi 5,5 % ni tashkil etdi.


Shahar va tumanlar kesimida kichik biznesning sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi eng yuqori ulushi Uchquduq tumanida (100,0 %), Tomdi tumanida (100,0 %), Konimex tumanida (100,0 %), Xatirchi tumanida (100,0 %), Zarafshon shahrida (98,5 %), Nurota tumanida (96,2 %) tashkil etdi.



Viloyatimizda shahar va tumanlar kesimida sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmida kichik biznes subyektlarining ulushi tahlili shuni koʻrsatdiki Navoiy shahrida (1,4 %), Karmana (15,3 %), Qiziltepa (37,7 %), Navbahor (41,6 %) tumanlarida sanoat ishlab chiqarish hajmlaridagi kichik biznes subyektlari ulushining kamligini, mazkur hududlarda joylashgan yirik sanoat korxonalarining ishlab chiqarish hajmlari yuqori ekanligi bilan izohlash mumkin.

Navoiy vloyatida faoliyat ko'rsatayotgan va yangi tashkil etilgan sanoat korxonalari


Bugungi kunda viloyatimizda 3 638 ta sanoat korxonalari faoliyat ko'rsatmoqda, shundan 784 tasi (mavjud korxonalar umumiy sonining 21,6 %) Navoiy shahriga, 602 tasi (16,5 %) Karmana tumaniga, 458 tasi (12,6 %) Xatirchi tumani hissasiga to'g'ri kelmoqda.



Jami faoliyat yuritayotgan



Jami yangi tashkil etilgan



yangi tashkil etilgan

faoliyat yuritayotgan